



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА
ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ

(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)
мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2023 йил-10 июнь

Бухоро - 2023

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАТЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусидаги халқаро миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛАРИ

2023 йил – 10 июнь

Бухоро - 2023

~ 2 ~

G'aznaviy uni o'z o'rdagohiga da'vat etdi. Arslon yabg'u 300 kishilik hamrohi bilan uning qarorgohiga keldi. Mahmud G'aznaviy Arslon yabg'uning qo'shini sonidan gap ochganida Arslon qo'lidagi yoy va uchta o'qqa ishora qilgan⁹⁴. Bu yabg'ulik alomati bo'lganiga shubha yo'q. Mahmud G'aznaviy Arslon yabg'uning katta kuch-qudratga egaligini angladi va payti kelib uning o'z o'lkasiga tahdid solishidan xavfsirab hiyla yo'li bilan uni qo'lga oldi. Arslon yabg'u Hindistonga, Mo'ltun yaqinidagi Kalinjar qal'asiga olib borilib, zindonband qilindi va umrining oxirigacha shu qal'ada qoldi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o'g'uz yabg'usi bilan ixtilof chiqqach, uning qo'mondoni Saljuq qabiladoshlari bilan Jand shahriga kelib o'rnashadi va u yerda kichik beylik tuzadi. Keyinchalik saljuqiylar somoniylar sulolasining so'nggi vakili Abu Ibrohimning qoraxoniylarga qarshi kurashlarida ishtirok etish orqali bevosita Movarounnahrda siyosiy jarayonlarga aralashishadi. Ta'kidlash joizki, XI asr boshlarida somoniylar va qoraxoniylar o'rtasidagi siyosiy kurashlar Buxoroda kechardi. Chunki, Abu Ibrohim somoniylar davlati markazi Buxoroni qoraxoniylardan tortib olgach, uni qo'lida saqlab qolishga harakat qilgan. Lekin Abu Ibrohimning harakatlari zoye ketib, somoniylar davlati barham topgan bo'lsa-da, saljuqiylarning Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga aralashuvi to'xtab qolmagan. Xususan, qoraxoniylar sulolasi vakillaridan Ali Tegin 1020-yil xoqon Arslon Eloqxoniga qarshi isyon ko'tarib Buxoroni egallab olgach, saljuqiylar Janddan janub tomon siljib Buxoro shimolidagi Nur mintaqasiga kelib o'rnashishgan. Natijada saljuqiylar Ali Teginning qoraxoniylarga qarshi kurashlarida ishtirok etishadi. Lekin saljuqiylar Buxoroga Ali Tegin bilan ittifoq tuzish maqsadida kelishmagan. Aslida ularning Buxoro muzofotiga kelishiga Jand hokimi Shohmalikning tazyiqlari sabab bo'lgan. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, ana shunday bir tahlikali zamonda Buxoroyi Sharif saljuqiylar uchun boshpana vazifasini o'tagan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

ARAB MANBALARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI (“KITOB AL-MASOLIK VAL-MAMALIK” MISOLIDA)

Umarov Baxtishod Baxridin o'g'li
BuxDU tayanch doktoranti

IX asr oxiri –X asrlarda Arab xalifaligi madaniy taraqqiyoti natijasida fanning turli sohalarida misli ko'rilmagan rivojlanishlar yuz berdi. Riyozat, handasa, ilmi hay'at, fiqh bilan bir qatorda jug'rofiya (geografiya) va tarix ilmi ham yangi bosqichga ko'tarildi. At-Tabari, Narshaxiy, Idrisi, Ibn Hurdobek, Ibn Havqal va Al-Istaxriylar shu davrninig yirik olimlaridir. Turk olimi Shamsiddin Somiy “Jug'rofiya fanining otasi” deya ta'rif bergan geograf olim – Istaxriyning X asr Yevropa, Osiyo va Afrika, shuningdek, Markaziy Osiyo tarixiy geografiyasi va topografiyasini yorituvchi “Kitob al-masalik val-mamalik” asari Somoniylar davri bo'yicha muhim manba hisoblanadi⁹⁵.

Manbalarda Istaxriyning to'liq ismi “Abu Ishoq Ibrohim ibn Muhammad al-Forisiy alIstaxriy ma'ruf bil-Karxiy” deb keltiriladi⁹⁶. U IX-XIII asrlarga oid geografik, tarixiy manbalar mualliflari orasida ancha mashhur hisoblanadi.

⁹⁴ Faruk Sümer. Oğuzlar. – Ankara: Ankara üniversitesi Dil ve tarih-coğrafya fakültesi yayınları, 1935. – S. 67-68.

⁹⁵ Шамсиддин Сомий. Комус ал-ълам.- Истанбул, 1894. –Б.991

⁹⁶ Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойберганов таржимаси. Т.: “Фан”, 2019.– Б.11.

Markaziy Osiyoning IX – XIII asrlar tarixiy geografiyasini o'rganishda asosiy ma'lumotlarni arab tilidagi manbalar beradi. “Kitab al-masalik val-mamalik” tarixiy-geografik asari bu borada muhim ahamiyatga ega manbalardan hisoblanib, “Movarounnahr” iqlimida to'rt yuzga yaqin joy nomi zikr etilishining o'zi uning manbaviy ahamiyati qanchalik katta ekanini ko'rsatib beradi⁹⁷. De Gue o'z tadqiqotlarida birinchilardan bo'lib, Ishtaxriy safarlari va yozib qoldirgan manbalari haqida ma'lumot berib o'tadi. De Gue o'z tadqiqotlarida Istaxriyning Arabiston, Suriya, Misr, Iroq, Xuziston, Ray kabi yana bir qancha sharq o'lkalariga safar qilganligini qayd etsa⁹⁸, A.T. Tagirjanov u Movarounnahr, Fors, Arabiston, Suriya, Misr va Atlantika ummoni sohiligacha safar qilganini yozadi⁹⁹. R. Beysebayev esa kitobning Movarounnahr iqlimi qismini Qohira nashri va Ibn Havqal asari matnini solishtirib o'rganadi¹¹². Tadqiqotlar natijasida ega bo'lingan bilimlar va asar haqidagi yangi-yangi ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Istaxriy sayohatlarini chekka hududlargacha amalga oshirilgan bo'lsada, eng qiziqarli tomoni o'z asarini safarnoma uslubida yozmagan.

“Kitob al-masolik val-mamolik” yigirma bobdan iborat bo'lib¹⁰⁰, asarda 22 mamlakat va viloyatning geografik xaritasi ham ilova qilingan¹⁰¹. Istaxriy har bir iqlimning jug'rofiy tuzilishini yoritayotganda avval uning chegaralarini ko'rsatadi, so'ngra undagi shaharlar o'rnini doiralar bilan belgilab ta'riflaydi. Movarounnahr tavsifida o'sha paytda hukmronlik qilib turgan Somoniylarning uning umumiy chegaralari, shaharlari va aholisining tabiati haqida axborot beriladi. Shuningdek, Movarounnahr tuzilishi, daryolari, tog'lari, dengizi, ob-havosi, aholisi fe'l-atvori, kayfiyati, harbiy salohiyati, davlat boshqaruviga ularning o'ziga xos munosabati, tijorat vositalari va etnografiyaga oid yana bir qancha ma'lumotlar juda qiziqarlidir¹⁰².

Asarda Movarounnahrning IX-X asrlardagi chegarasi sharqda Xuttal, g'arbda Samarqand So'g'di, Buxoro, Xorazm va uning dengizi, shimolda Farg'ona, janubda Badaxshon va Jayhun daryosi bilan o'rab olingan hududni aniq ko'rsatib o'tilganligini ko'rishimiz mumkin.

Somoniylar davrida Buxoro shahri haqida quyidagi ma'lumot qayd etiladi: “Chiroy bobida Islom o'lkalarida Movarounnahr Buxorosidan yaxshiroq shahar borligini ko'rmadim ham, eshitmadim ham. Qal'asiga ko'tarilsang, ko'zing barcha yerlaridagi yashillikdan boshqa narsaga tushmaydi. Uning yashilligi falak rangiga tutashib ketadi. Osmon unda to'rtburchak yashil gilam ustidagi ko'k gumbaz kabidir. Bag'rida qasrlar yog'du singari miltillaydi. Tekis haydalgan dalalari oynaday. Movarounnahr va Xurosonda Buxoro ahlidagi kabi yaxshi haydaladigan yer, ko'p maydonli shahar yo'q. Bu faqat shu shaharga xosdir”¹⁰³.

Yuqoridagi ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, Somoniylar davriga kelib,

⁹⁷ Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойбергенов таржимаси. Т.: “Фан”, 2019. – Б.68.

⁹⁸ De Goeje M.J. Die Istakhri – Balkhi frage // Zeitschrift der Deutschen morgenlandischen Gesellschaft. – Leipzig, 1871. – №25, –В.49

⁹⁹ А. Т. Тагирджанов, *Список таджикских, персидских и тюркских рукописей Восточного отдела. Библиотеки ЛГУ, М., 1967.*–Б. 374. ¹¹² Бейсебаев Рахат Сансызбаевич. Арабские источники IX - начала XIII вв. о Восточном Мавераннахре : диссертация ... кандидата исторических наук., Санкт-Петербург, 2008.– 128 с.

¹⁰⁰ Б.Ахмедов. Ўзбекистон тарихи манбалари. – Т.: Ўқитувчи, 2001. – Б.120.

¹⁰¹ Собиров Н. И. Сведения арабских путешественников и географов об истории и культуры верховьев Зеравшана в источниках IX-XII вв //Вестник Педагогического университета. – 2020. – №. 4 (87). – С. 249252.

¹⁰² Истахри Абуисхак. Масолик ва мамолик. – Иран: Тегеран, 1990. – С. 245

¹⁰³ Истахрий. Китоб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойбергенов таржимаси. Т.: “Фан”, 2019. – Б.133.

Buxoro shahri har tomonlama o'sgan. Uning maydoni ancha kengayib, ulug' shahar darajasigacha yetgan. Arab va ajamliklar uchun Movarounnahrda islomning eng yirik shahriga aylangan. Shahar shu qadar yuksalgan ediki, deyarli barcha qishloqlari ham obob qilingandi. Asarda shunday keltiriladi: "Buxoro qishloqlari binolari bir-biriga aralashib ketgan, bir tartibdagi uylar va binolar tageri ko'tarilgan. U ko'handizlar va uylar majmuasi bilan mustahkamlangan. Bu devorning ichida tog' ham, cho'l ham yo'q. Unga Varka tog'i eng yaqinidir. Shaharlarining yo'llari va imoratlari toshi, idishlari uchun loy, ohak va gips undan olinadi."¹⁰⁴

So'nggi yillarda tarixiy manbalar va xaritalarga bo'lgan qiziqish, tarixga yangicha yondashuvlarning samarasi o'laroq 2019-yilda R.T.Xudoyberganov muallifligida "Kitob almasolik val-mamolik" asarining "Movarounnahr" va "Xuroson" iqlimlari qismi tarjima qilindi va Toshkentda o'zbek tilida o'rta asr sayyoh va geograf olimlari, xususan, al-Istaxriyning bizgacha yetib kelgan qo'lyozma nusxalaridagi islom dunyosining turli mamlakatlari xaritalariga bag'ishlangan kitob nashr etildi¹⁰⁵.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
2. Бешимов, М. К. (2022). MUNZIM ZAMONDOSHI AYNIIY XOTIRALARIDA: Beshimov Maqsud Komilovich, Buxoro tarixi kafedrasida o'qituvchisi, Buxoro Davlat Universiteti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (6), 15-17.
3. Beshimov, M. (2022). MANG 'ITLAR DAVRIDA BUXORODA MADANIY HAYOT (me'morchilik, adabiyot va san'at). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 20(20).
4. BESHIMOV, M. (2022). Amir Said Alimkhan and Young Bukhara residents. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 78-83.
5. Beshimov, M. (2022). ABDULVAHID MUNZIM-ENLIGHTENED POET, STATE AND PUBLIC FIGURE. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(6), 52-56.
6. Rajabov, O. I. (2022). HISTORY OF FORTRESS OF MAKHMUD TOROBI. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 50-54.
7. Rajabov, O. (2021). SHOR BAKR TARIXIY ME'MORIY MAJMUASI XUSUSIDA. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
8. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
9. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgozlari muqaddas qadamjo sifatida. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).
10. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
11. ISKANDAROVICH, R. O. (2021). BUKHARA ISLAMIC SCHOLARS VIII-XII CENTURIES. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(4), 42-48.
12. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble. *Telematique*, 6886-6890.
13. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ХУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
14. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
15. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
16. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.

¹⁰⁴ Истахрий. Китоаб ал-масолик вал-мамолик. Араб тилидан Худойберганоа таржимаси. Т.: "Фан", 2019. – Б.152.

¹⁰⁵ Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нодир китоблар коллекцияси 2-гўплам/масъул муҳаррир У.

Тешабаева.-Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2020. –Б.8

17. Sherzod O'ktam o'g, N. (2023). TARIXCHI OLIM PO 'LAT SOLIYEV ILMIY ME'ROSIDA TURKISTON TARIXIGA OID AYRIM MASALALAR. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(7), 1283-1290.
18. Nosirov, S. (2022). BUXORO AMIRLIGI MAORIF TIZIMIDA YANGI USUL-JADID MAKTABLARINING FAOLIYATI (S. AYNIY XOTIRALARI ASOSIDA). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 26(26).
19. Nosirov, S. (2022). Sadridin Ayniy asarlari buxoro inqilobini tarixini o 'rganuvchi manba sifatida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 26(26).
20. Nosirov, S. (2022). САДРИДДИН АЙНИЙ-АХМАД ДОНИШ ХАҚИДА. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 26(26).
21. Komilovich, M. B., & O'g, N. S. O. K. (2023). Abdulvahid Munzim and Young Buharans. *Telematique*, 22(01), 1182-1185.
22. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИКДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ХУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
23. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
24. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ХАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
25. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
26. Voboionova, V. (2022). IDIOMS AND THEIR IMPORTANCE. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(6), 573-576.
27. Бобожонова, Ф. Х. (2021). БУХОРО МАДРАСАЛАРИ МАЪНАВИЯТ ДУРДОНАСИ. *Scientific progress*, 2(1), 362-366..
28. Voboionova, F. Issues of construction, material security and organization of activities of madrasas in the Emirate of Bukhara. 2020. *B-213*.
29. Voboionova, F. X. Bukhara madrasas are a masterpiece of spirituality. *SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1601 2021. R-362-366*.
30. Hayatovna, V. F. (2022). The Issues of Construction of the Bukharan Madrasas, Their Material and Organization of Their Activity. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(4), 1-11.
31. Бабаджанова, Ф. Х. (2022). БУХОРОДАГИ МИР-АРАБ МАДРАСАСИ ТАРИХИГА БИР НАЗАР. ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (SI-1).
32. Umarov, V. B. O. (2022). SCIENCE, EDUCATION AND CULTURE DURING THE RULE OF THE SOMANIANS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 46-49.
33. UMAROV, V. (2022). ARCHITECTURE OF BUKHARA IN THE ASHTARKHANID PERIOD. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 94-100.
34. Umarov V. БУХОРО ВОҲАСИ ТУРАР-ЖОЙЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2022. – Т. 22. – №. 22.
35. VAHTISHOD, U., & ULUG'BEK, Q. Y. (2022). MS ANDREEV-THE GREAT EASTERN SCIENTIST. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 120-123.
36. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ ТАДҚИҚОТЛАРИДА ЖАНУБИЙ ТОЖИКИСТОН ЭТНИК ТАРИХИ. *Scientific progress*, 1(6), 1005-1009.
37. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 495-497.
38. Ravshanovich, S. D. (2022). CURRENTLY, THE PLACE OF AFGHANISTAN IN THE COMMUNICATION OF CENTRAL AND SOUTH ASIA. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(6), 55-59.
39. SHAROPOV, D. (2022). ПРАВИТЕЛЬ МАНГЫТОВ ЭМИР ХАЙДАР. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(2), 101-104.
40. Sharopov, D. R. O. G. L. (2021). АРАБ ХАЛИФАЛИГИДАН MUSTAQIL ТОНИРИЙЛАР ДАВЛАТИНИНГ АЖРАЛИВ ШИҚИШИ. *Scientific progress*, 2(7), 817-820.
41. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ҒАРБ МАМЛАКАТЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.
42. Qudratov S. XIX АСР ОХИРИ ХХ АСР БОШЛАРИДА БУХОРО АМИРЛИГИДА ҚОРАҚЎЛ САВДОСИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
43. Qudratov S. БУХОРО АМИРЛИГИНИНГ ШАРҚ ХАЛҚЛАРИ БИЛАН САВДО АЛОҚАЛАРИ ТАРИХИДАН //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.

44. Темиров, Ф., & Умаров, Б. (2021). БУХОРО АМИРЛИҚДА ОИЛА, НИКОҲ ВА МЕРОС ҲУҚУҚИНИНГ АМАЛДА ҚЎЛЛАНИШИ. *Scientific progress*, 2(1), 1201-1207.
45. T. F., & UMIDA, X. (2022). PUBLISHING AND LIBRARY ACTIVITIES OF THE TURKESTAN JADIDS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 26-31.
46. Темиров, Ф., & Исломов, Д. (2021). САДРИДДИН АЙНИЙ-ЗАМОНДОШИ ФИТРАТ ҲАҚИДА. *Scientific progress*, 2(1), 1349-1354.
47. Темиров, Ф., & Халикова, Н. (2021). БУХОРО АМИРЛИГИДА ТАШҚИ СИЁСАТ ВА ДИПЛОМАТИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШИ ТАРИХИДАН. *Scientific progress*, 2(1), 1276-1282.
48. ogli Umarov, B. B. (2021). FAMILY AND MARRIAGE RELATIONS IN NA KISLYAKOV'S RESEARCH. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(02), 127-135.
49. Umarov, B. (2021). OLIY TA'LIMDA TALABALAR O 'QUV-BILUV FAOLIYATINING PSIXODIDAKTIK ASOSLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
50. Umarov, B. (2021). NA KISLYAKOV TADQIQOTLARIDA BUXORO AMIRLIGIDAGI FEODAL VA QISHLOQ HO 'JALIGI MUNOSABATLARINING YORITILISHI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 6(6).
51. O'G'Li, U. B. V., & Temirov, F. (2023). SOURCES OF INFORMATION ON THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF THE SOMANIAN DYNASTY. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 3(3), 35-41.
52. Болтаев, А. Х. (2018). ИССЛЕДОВАНИЕ С. ЮРЕНЕВА В МЕЧЕТИ КАЛЯН. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (5), 8-12.
53. Болтаев А. Х. Бухоро музейи–тарихий ўлкашунослик маркази сифатида //Тошкент: Наврўз. – 2019. – Т. 70.
54. Болтаев А. Х. Бухоро ўлкашунослиги тарихини ўрганишда СН Юренив ёзишмаларининг ўрни //Тошкент: Ўзбекистон Миллий университети хабарлари. – 2018. – №. 1. – С. 5-9.
55. Болтаев, А. Х. (2018). Бухоро шахри 11 дарвозасининг тарихи ва тақдири (ўлкашунос ТФ Гелах тадқиқотларида). *Тюркоязычные страны. Республиканский научно-методический и познавательный журнал.–Алмати*, 2, 6-8.
56. Болтаев, А. (2020). БУХОРО УЛКАШ УНОСЛИК МУЗЕИИНИНГ Ш АКЛЛАНИШИ ВА ДАСТЛАБКИ ФАОЛИЯТИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 1(1).

БУХОРО VOHASINI O'RGANISH FRANSIYA-O'ZBEKISTON ARXEOLGIK MISSIYASI HAQIDA

Jahongir Ostonov Davlatovich
O'zR FA Sharqshunoslik instituti tayanacha doktoranti

Buxoro vohasi Markaziy Osiyoning qadimdan inson yashab kelayotgan hamda ilk sivilizatsiyalar paydo bo'lgan hududlardan biri hisoblanadi. Bunda Zarafshon daryosining vohaning cho'l hududlariga olib borgan obi-hayotning o'rni katta. Ushbu vohada bir-biridan mustaqil bir nechta shaharlarning vujudga kelishi uning savdo va iqtisodda gullab yashnashiga turtki berdi. Bu vohada paydo bo'lgan va gullab yashnagan shaharlar orasida Poykent, Romitan, Varaxsha, Vobkent kabi ilk o'rta asr shaharlari keyinchalik mintaqaning muhim markazlardan biriga aylanishida tamal toshini qo'yib berdi. Tabiiy iqlim sharoitlarining o'zgarishi, cho'llanish, bosqinchilik urushlari oqibatida ular inqirozga yuz tutdi hamda o'z mavqeini butkul yo'qotdi. Faqatgina XIX asr oxiri, XX asr boshiga kelibgina vohani ilmiy jihatdan o'rganish